

ИЖТИМОЙИ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 3/1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 3/1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 3/1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3/1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-3/1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабилова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решаёт задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счёт внедрения достижений научных исследований учёных и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухраҳон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Abdullayev Sardorbek

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA MEHNAT BOZORI EHTIYOJLARINI PROGNOZLASHNING SOTSIOLOGIK MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....5

2. Пак Полина

ЦИФРОВАЯ СОЦИАЛЬНАЯ АКТИВНОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В СИСТЕМЕ ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОПЫТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....12

3. Вахидова София

ФАКТОРЫ, ПРЕДСКАЗЫВАЮЩИЕ ПРИВЕРЖЕННОСТЬ ГЕНДЕРНЫМ СТЕРЕОТИПАМ В ОТНОШЕНИИ МУЖЧИН: ОПЫТ МНОЖЕСТВЕННОГО РЕГРЕССИОННОГО АНАЛИЗА.....21

4. Abduvalieva Mumtozxon, Qo'ldosheva Iroda

BOLALAR IJTIMOYIY HIMOYASINING XALQARO STANDARTLARI VA GLOBAL RIVOJLANTIRISH TENDENSIYLARI.....29

5. Bozorova O'lmasxon

DAVLAT BOSHQARUVI MODERNIZASIYASIDA YOSH RAHBARLAR IJTIMOYIY KAPITALINING KONSTRUKTIV XUSUSIYATLARI: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....37

6. Adilova Rayxon

IBN SINONING "SIYOSAT"RISOLASIDA "DAVLAT ICHIDAGI DAVLAT" NAZARIYASI.....44

7. Artikbayeva Nazokat

YOSHLARDA INTERNETGA QARAMLIK TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOYIY MUNOSABATLARGA TA'SIRI: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....52

8. Arifxodjayeva Luiza

YOSH RAHBARLARDA O'ZGARISHLARNI BOSHQARISH KOMPETENSIYASINI BAHOLASH TIZIMI VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH ISTIQBOLLARI.....58

9. Махмудова Малика

ЛАТЕНТНАЯ «ВИНОВНОСТЬ ЖЕРТВЫ» КАК БАРЬЕР ДОСТУПА ЖЕНЩИН К ПРАВОСУДИЮ ПО ДЕЛАМ О СЕМЕЙНОМ НАСИЛИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....65

10. Тилепова Гулайым

ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫ МЕХАНИЗМЫ СОЦИАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ ЭТНОКУЛЬТУРНОЙ ИНТЕГРАЦИЕЙ.....76

11. Bekchanova Sevinch

NOGIRONLIGI BOR BOLALAR OTA-ONALARINING INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA ISHTIROKI: "SHAXSIY JASORAT"DAN INSTITUTSIONAL SHERIKLIKKA (TOSHKENT SHAHRI SERGELI TUMANI MISOLIDA).....90

12. Abdullayev Sardorbek

PROFESSIONAL TA'LIM BITIRUVCHILARINING MEHNAT BOZORIGA INSTITUTSIONAL MOSLASHUVINI BAHOLASHNING SOTSIOLOGIK MEZONLARI.....97

13. Azizov S.

MARKAZIY OSIYO VA YAPONIYA XALQLARI O'RTASIDAGI ILK MADANIY-SIVILIZATSIYAVIY ALOQALAR: TARIXIY-METODOLOGIK TAHLIL.....105

ИЖТИМОЙИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Bozorova O'Imasxon,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi tayanch doktoranti

DAVLAT BOSHQARUVI MODERNIZASIYASIDA YOSH RAHBARLAR IJTIMOIIY KAPITALINING KONSTRUKTIV XUSUSIYATLARI: SOTSIOLOGIK TAHLIL



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21498633>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada davlat boshqaruvi tizimidagi ijtimoiy kapitalning konstruktiv jihatlari va ularning boshqaruv samaradorligini ta'minlashdagi roli empirik-sotsiologik tadqiqot natijalari asosida tahlil qilingan. Maqolada raqamlashtirish va modernizatsiya sharoitida davlat apparati faoliyatini an'anaviy ma'muriy-huquqiy reglamentlar bilan bir qatorda, tashkilotlararo konstruktiv aloqalar dinamikasi orqali baholash zarurati ilmiy asoslangan. Respondentlarning davlat institutlariga bo'lgan ishonchi, fuqarolik faolligi, jamoatchilik ishtiroki va kommunikativ munosabatlari tizimli o'rganilgan. Shuningdek, yosh rahbarlar faoliyatida ijtimoiy kapital elementlarining ta'siri, tashkiliy muhitda mas'uliyat va majburiyatlarning adolatli taqsimlanishi, ichki nizolarni kamaytirish hamda davlat xizmatida "ijtimoiy lift" vazifasini bajarish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida tizimdagi instituts bo'shliqlar aniqlanib, ularni bartaraf etishda "ko'priq soluvchi (bridging capital) munosabatlar modeli tahlil qilingan hamda tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy kapital, davlat boshqaruvi, yosh rahbarlar, institutsional ishonch, jamoaviy hamjihatlik, mentorlik, raqamli texnologiyalar, boshqaruv sotsiologiyasi, ishonch indeksi.

Бозорова Улмасхон,

докторант Академии государственной политики и
управления при Президенте Республики Узбекистан

КОНСТРУКТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА МОЛОДЫХ РУКОВОДИТЕЛЕЙ В МОДЕРНИЗАЦИИ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе результатов эмпирико-социологического исследования анализируются конструктивные аспекты социального капитала в системе государственного управления и их роль в обеспечении эффективности управления. В статье научно обоснована необходимость оценки деятельности государственного аппарата в условиях цифровизации и модернизации наряду с традиционными административно-правовыми регламентами через динамику конструктивных межорганизационных связей. Систематически изучались доверие респондентов к государственным институтам, гражданская активность, участие общественности и коммуникативные отношения. Также исследовано влияние элементов социального капитала в деятельности молодых руководителей, справедливое распределение

ответственности и обязанностей в организационной среде, снижение внутренних конфликтов и возможности выполнения задачи “социального лифта” на государственной службе. В ходе исследования были выявлены институциональные пробелы в системе, проанализирована модель отношений “мостостроительства” (bridging capital) для их устранения, а также разработаны соответствующие выводы и рекомендации.

Ключевые слова: социальный капитал, государственное управление, молодые руководители, институциональное доверие, коллективная солидарность, менторство, цифровые технологии, социология управления, индекс доверия.

Bozorova Olmaskhan,
Researcher of the Academy of Public Policy and Administration
under the President of the Republic of Uzbekistan

CONSTRUCTIVE FEATURES OF SOCIAL CAPITAL OF YOUNG LEADERS IN THE MODERNIZATION OF PUBLIC ADMINISTRATION: SOCIOLOGICAL ANALYSIS

ABSTRACT

This article analyzes the constructive aspects of social capital within the public administration system and their role in ensuring management efficiency based on the results of empirical-sociological research. The article scientifically substantiates the need to evaluate the activities of the state apparatus in the context of digitalization and modernization through the dynamics of constructive inter-organizational relations alongside traditional administrative-legal regulations. Respondents' trust in state institutions, civic engagement, public participation, and communicative relationships were systematically studied. The influence of social capital elements in the activities of young leaders, the fair distribution of responsibilities and duties in the organizational environment, the reduction of internal conflicts, and the possibilities of performing the function of a “social elevator” in the civil service are also investigated. In the course of the study, institutional gaps in the system were identified, the “bridge-building” (bridging capital) relationship model was analyzed to eliminate them, and relevant conclusions and recommendations were developed.

Keywords: social capital, public administration, young leaders, institutional trust, team cohesion, mentoring, digital technologies, management sociology, trust index.

KIRISH

Zamonaviy boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilish va ularning natijadorligini oshirish ijtimoiy munosabatlar tizimini ilmiy asosda tadqiq etishni taqozo qilmoqda. Endilikda davlat boshqaruvi nafaqat ma'muriy-huquqiy reglamentlar, balki tizim ichidagi va tashkilotlararo konstruktiv aloqalar dinamikasi bilan ham belgilanmoqda. O'zbekistonda ijtimoiy jarayonlarni sotsiologik jihatdan o'rganish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidan biriga aylandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-fevraldagi “O'zbekistonda sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni tartibga solish va qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi PF-5667-son Farmoni ushbu sohadagi empirik izlanishlarning amaliy ahamiyatini yangi bosqichga olib chiqdi [1].

Ijtimoiy kapital kategoriyasi jamiyatdagi va tashkilotdagi o'zaro ishonch, ijtimoiy aloqalar, hamkorlik va qadriyat tizimi orqali davlat boshqaruviga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Boshqaruv tizimining shaffofligi, kadrlar salohiyati va raqamli jamiyat sharoitida kommunikativ muhitni shakllantirish mazkur fenomenni konseptual va empirik darajada tadqiq etishni dolzarblashtiradi [2].

METODOLOGIYA

Ijtimoiy kapital tushunchasi va uning boshqaruvdagi o'rni G'arb sotsiologiyasida klassik va zamonaviy yondashuvlar doirasida keng tadqiq etilgan. Xususan, P.Burdye ijtimoiy agentlarning o'zaro aloqalari tarmog'iga a'zoligi orqali yuzaga keladigan resurslar yig'indisi sifatida iqtisodiy va madaniy kapital bilan aloqadorlikda o'rgangan [8]. R.Patnam esa o'zining fundamental tadqiqotlarida ijtimoiy kapitalni jamiyat a'zolari o'rtasidagi ishonch, ijtimoiy normalar va tarmoqlar


majmui sifatida talqin qilinib, uning institutsional samaradorlikni hamda fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlovchi asosiy kuch ekanligini isbotlagan [3]. J.Koulman ushbu kapitalni shaxslararo munosabatlar strukturasi mavjud bo'lgan, ratsional harakat qiluvchi subetktlarning muayyan maqsadlariga erishishini yengillashtiruvchi ijtimoiy resurs sifatida baholaydi [4]. Zamonaviy tadqiqotlarda boshqaruv tizimidagi ishonch fenomeni va tashkilot madaniyatini baholashda P.Shtompka yondashuvlari muhim o'rin tutadi. U ishonchni ijtimoiy munosabatlarning asosi va risklarni kamaytiruvchi strategik omil sifatida ko'rsatadi [7].

Mahalliy olimlardan M.Bekmurodov o'z ishlarida davlat xizmati tizimida boshqaruv sotsiologiyasining konseptual asoslarini, boshqaruv madaniyatini tizimli tahlil etgan bo'lsa [2], K.Quronboyev yosh kadrlar rahbarlik faoliyatining ijtimoiy-psixologik jihatlarini va liderlik xususiyatlarini shakllantirish masalasini tadqiq qilgan [5]. Shuningdek, respublikamizda davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishning sotsiologik chihatlari, xususan raqamlashish va davlat apparati transformatsiya sharoitida ijtimoiy munosabatlarning o'zgarish dinamikasi so'nggi yillarda dolzarb yo'nalishga aylandi. Biroq, raqamlashish davrida davlat apparati faoliyatida yosh rahbarlarning ijtimoiy kapitalini, uning strukturaviy va boshqaruv samaradorligiga (KPI) ta'sir qiluvchi konstruktiv jihatlarini tizimli empirik-sotsiologik tahlil qilish hali to'liq monografik tadqiq etilmagan va chuqur o'rganishni taqozo etadigan yo'nalishlardan hisoblanadi [9].

ASOSIY QISM

Davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishda ijtimoiy kapitalning konstruktiv xususiyatlarini o'rganish maqsadida tizimli sotsiologik tadqiqot tashkil etildi. So'rovnoma tanlash usuli sifatida maqsadli kvotali saralash metodidan foydalanildi.

Tadqiqot geografiyasi Respublikaning beshta hududini, ya'ni bular, Toshkent shahri, Farg'ona, Jizzax, Buxoro viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududlarini qamrab oldi. Respondentlar sifatida hokimiyat organlari, vazirliklar va idoralarda faoliyat ko'rsatayotgan, yoshi 23 dan yuqori bo'lgan boshqaruv xodimlari tanlab olindi. Tanlanma majmuaning reprezentativligini ta'minlash uchun jinsiy va yosh mezonlariga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, so'rovda ishtirok etganlarning 54,9 foizini erkaklar, 45,1 foizini ayollar tashkil etdi. Respondentlarning yosh tarkibi 23-27 yosh ulushi 16,7% ni, 28-33 yosh oralig'idagi respondentlar 9,4% ni, 34-40 yosh respondentlar esa 57,2% ni tashkil etdi (7-rasm).




1-rasm. Respondentlarning yosh ko'rsatkichlari.

Ilmiy obyektivlikni oshirish uchun boshqaruv tizimidagi lavozimlar kesimi ham deversifikatsiya qilindi. So'rovnoma boshqarma boshliqlari (18%), bo'lim boshliqlari (18,7%), bosh mutaxassislar (18%), bo'limda bosh mutaxassislari (16%), yetakchi mutaxassislar (10,2%) va bo'limlardagi boshqa yetakchi xodimlar (19,2%) ishtirok etdi. Mazkur iyerarxiya rang-baranglik olingan ma'lumotlarning ishonchlilik darajasini ta'minlashga xizmat qiladi.

So'rovnoma davomida respondentlarga berilgan konseptual savollardan biri: "Yosh rahbarning ijtimoiy kapitali uning boshqaruv samaradorligiga qay darajada ta'sir ko'rsatadi?" deb nomlanib, olingan natijalar ijtimoiy aloqalarning boshqaruvda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. So'rovnoma ishtirokchilarining 72,2% qismi katta darajada ijtimoiy aloqalar boshqaruv natijalarini belgilaydi degan xulosaga kelganliklari ma'lum bo'ldi. O'rta darajada va boshqa omillar bilan birgalikda ta'sir qiladi deb hisoblovchilar esa 24,3% ni tashkil etadi. Kam darajada deb

hisoblovchilar 2.2% ni, javob berishga qiynalaman deb hisoblovchilar esa 1.2% ni tashkil etmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki respondentlarning aksariyat qismi yosh rahbarning samaradorligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy kapital omilining o‘rni beqiyos ekanligi ma’lum bo‘ldi. Aytish kerakki, respondentlarning deyarli 99% ulushi qaysidir darajada bo‘lsa-da ijtimoiy kapitalning yosh rahbar faoliyatidagi ahamiyatini dolzarb deb hisoblaganlar (2-rasm).



2-rasm. Yosh rahbarning ijtimoiy kapitali uning boshqaruv samaradorligiga ta’sir etish ko‘rsatkichi.

Keyingi o‘rindagi tashkilot ichki muhitini shakllantirishda ijtimoiy kapitalning rolini baholashda respondentlar quyidagicha fikr bildirdilar. Respondentlarimizning eng katta ulushi ya’ni 33.9% ulushi ushbu savolga jamoada ishonch va o‘zaro hamjihatlik muhitini yaratadi degan fikrni bildirib o‘tganlar. Rahbar va hodimlar o‘rtasida ochiq muloqot muhitini yaratadi deb hisoblovchi respondentlar ham mavjud bo‘lib ular qariyb 25.8% ni tashkil etishdi. 20.6% esa ijtimoiy tarmoqlar, aloqalar va ishonch orqali faoliyat samaradorligini oshirishda deb hisoblashayotgan bo‘lsa, yana 19.7% respondent odamlar o‘rtasida tajriba va hamkorlik omillarining takomillashuviga to‘xtalganliklarini ma’lum qiladi.


Aytish lozimki, ushbu savolda respondentlar fikrlarining umumiy xulosasida ijtimoiy kapital ijobiy ahamiyat kasb etishi, shaffoflik va kommunikativlik kabi jihatlarni mustahkamlabgina qolmasdan o‘zaro ishonchni ham mustahkamlashga xizmat qilishi ma’lum bo‘ldi (1-jadval).

1-jadval.

Ijtimoiy kapitalning tashkilot muhitiga ta’sir etish ko‘rsatkichi

№	Ijtimoiy kapitalning tashkilot muhitiga ta’sir etish ko‘rsatkichi	Javoblarning foiz ko‘rsatkichi
1.	Jamoda ishonch, hamjihatlik va o‘zaro yordam muhitini	33,9%
2.	Rahbar va hodimlar o‘rtasida ochiq muloqotni ta’minlaydi	25,8%
3.	Ishonch va aloqalar orqali mehnat samaradorligini oshiradi	20,6%
4.	Xodimlar o‘rtasida tajriba almashinuvi va hamkorlikni kchaytiradi	19,7%

Shaxsiy ijtimoiy kapitalni shakllantiruvchi omillar sifatida respondentlar tomonidan rahbariyatning tashabbuslarga ochiqligi (22,5%), adolatli baholash tizimi (19%), malaka oshirish va tarmoqli hamkorlik (18,5%) hamda axloqiy qadriyatlar va ishonch muhiti (18,5%) ni tashkil etgan (3-rasm).




3-rasm. Respondentlarning rahbar sifatidagi ijtimoiy kapitalni shakllantirishda ta'sir etuvchi omillar ko'rsatkichi.

Boshqaruv tizimida yosh rahbarlar uchun mavjud bo'lgan ijtimoiy aloqalar va hamkorlik muhitining real darajasi so'ralganda, ishtirokchilarning 33,2 foizi yuqori, 29,7 foizi o'rta, 19,2 foizi past deb baholagan bo'lsa, 17,9 foizi javob berishga qiynalgan. Bu esa tizimda hali ham ijtimoiy kapitalni rivojlantirish bo'yicha institutsional bo'shliqlar mavjudligidan dalolat beradi.

Shuningdek, "Sizningcha yosh rahbarlar uchun eng zarur bo'lgan ijtimoiy kapital elementlari (ko'p variantli tanlov asosida) quyidagi muhim?" degan savolimizga quyidagi tartibda namoyon bo'ldi. Xususan, ilmiy fikrlash va innovatsion yondashuv deb hisoblovchilar 77.6% ni, ishonch va shaffoflik muhiti 68.1% ni, liderlik qobiliyati va jamoani ilhomlantirish 67.6%ni, muloqot va fikr almashinuvi degan fikrni bildirgan respondentlar esa 66.1% ni tashkil yetdilar.

O'z navbatida korrupsiya toqatsizlik 66.6% respondentlarni, tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash mexanizmi esa 60.4% ni tashkil qildi. Bu yerda o'zaro kommunikativlik ya'ni hamkasblarga hurmat va bag'rikenglik qilish masalasi ham tadqiqotimizda 57.7% respondentlarni qamrab olgani ma'lum bo'lmoqda. Jamoa ruhi va hamjihatlik masalasida ham 64.4% respondentlar bir hil pozitsiyada ekanliklari ma'lum bo'ldi.



4-rasm. Yosh rahbarlar boshqaruv samaradorligini oshirish uchun quyidagi ijtimoiy kapital elementlarining muhimlik ko'rsatkichi (foizda).

Yuqoridagi ko'rsatgichlarning foiz hisobidagi ulushiga e'tibor qaratsak, har bir omil uchun respondentlarning yarmidan ko'p qismi muhim faktor sifatida baho berganliklari ham ushbu omillarning zaruriy ahamiyat kasb etayotganligidan dalolat bermoqda. Shunday bo'lsa-da ilmiy fikrlash va innovatsion yondashuvning o'rni boshqaruv faoliyatida muhim ekanligi respondentlar tomonidan ta'kidlangani ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumot o'rnida aytish lozimki, ushbu savolda respondentlarning 5 tagacha javob berish imkoniyati bo'lganligi uchun umumiy hisobda foiz ko'rsatgichlari yahlit proporsiya qilinmagan. Ya'ni, har bir savolning javob variantlari 100% lik ko'rsatgichga nisbatan olingan.

Bugungi raqamli texnologiyalar albatta ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Biz quyidagi savolda raqamli texnologiyalarning ijtimoiy kapital rivojiga qay darajada ta'sir ko'rsatayotganini bilishga uringan holda respondentlarimizning fikrlarini tahlil qilishga harakat qildik. Sotsiologik so'rovnoma ishtirokchilar ushbu savolga turlicha qarashlarini ilgari surdilar.

Masalan, 38.3% so'rov ishtirokchisi zamonaviy aloqa vositalarini kuchaytiradi va bu katta darajada ta'sirini o'tkazadi degan xulosaga kelganlar. Darhaqiqat, bugungi raqamli iqtisodiyot va raqamli texnologiyalar kishilar orasidagi munosabatlarni ham o'zgartirib borayotgani, hattoki jamoaviy munosabatlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatayotganini hech kimga sir emas.

Albatta, ijtimoiy kapitalni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o'rni katta ekanligini inobatga olish zarur. O'rta darajada deb hisoblovchilar 25.6% ni tashkil etadi, bu esa har to'rtinchi respondentning fikrini ifodalaydi. Ta'sir darajasini kam deb hisoblovchi respondentlar ham mavjud bo'lib, ular jami respondentlarning 18.9% qismini tashkil etmoqdalar.

Ushbu savolga javob berishni xohlamagan respondentlar esa 17.2% ni tashkil qilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, so'rov ishtirokchilarining katta ulushi u yoki bu darajada raqamli texnologiyalarning ijtimoiy kapitaldagi o'rni yuqori ekanligini ta'kidlab o'tganlar.

Boshqaruv tizimida yosh rahbarlarning ijtimoiy kapitalini oshirishga qaratilgan tashkiliy-institutsional chora-tadbirlarning samaradorligi so'rovnoma alohida jadval ko'rinishida tizimlashtirildi (2-jadval).

2-jadval.

Yosh rahbar ijtimoiy kapitalini oshirishda qanday choralar ko'rish samaraliroq natija berishini aniqlash tahlili

Boshqaruv tizimida yosh rahbarlarning ijtimoiy kapitalini oshirish choralari samaradorligi	Javoblarning foiz ko'rsatkichi
Yosh rahbarlar uchun mentorship (ta'lim va maslahatchilik) tizimini joriy etish	66,6
Malakani oshirish va stajirovkalarni muntazam tashkil etish	66,8
Ijtimoiy tarmoq va hamkorlik platformalarini yaratish	54,5
Yoshlar tashabbuslarini moliyaviy va ma'naviy rag'batlantirish	58,5
Teng imkoniyat va shaffof baholash tizimini kuchaytirish	56,3
Axloq, odob va insoniy qadriyatlarga asoslangan boshqaruv madaniyatini rivojlantirish	58,0
Ish joyida psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini yo'lga qo'yish	54,3
Davlat va jamoat tashkilotlari bilan ko'proq hamkorlik qilish	74,9

Empirik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy kapital omili davlat boshqaruvi jarayonlarida siyosiy yoki ma'muriy vositalarikabi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamoada o'zaro ishonchni oshirish uchun respondentlarning 36,9 foizi qadriyatlar asosida boshqaruv konsepsiyasini ustuvor deb hisoblashi bejiz emas. Bu yondashuv ichki muhitni sog'lomlashtirish va korporativ madaniyatni yuksaltirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi [6].

Sotsiologik kuzatuvlar kuzutuvlar shuni ko'rsatadiki, tashkilotda xodimlarning noroziligiga va jamoa jipsligining buzilishiga olib keluvchi asosiy omil – mas'uliyat va majburiyatlarning noteng taqsimlanishidir. Bunga javoban, respondentlarning 19,1 foizi mas'uliyatni adolatli bo'lishi orqali ishonchni tiklash mumkinligini qayt etgan.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ekspertlar so'rovida ilgari surilgan institutsional ishonch va kapital dinamikasi o'rtasidagi bog'liqlik to'g'risida gipotezani tasdiqladi. Xususan, boshqaruv xodimlarining faoliyat samaradorliklarini baholash (KPI) tizimiga ijtimoiy kapital va kommunikativ ko'nikmalarni baholovchi indikatorlarni integratsiya qilish zarurligi e'tirof etildi [7,10].

XULOSA

Davlat boshqaruvi samaradorligi – bu nafaqat buyruqyozlik va qat'iy rasmiy iyerarxiya, balki birinchi navbatda, boshqaruv subyektlari o'rtasidagi konstruktiv munosabatlar tarmog'idir. Empirik-sotsiologik tahlil xulosalariga ko'ra, ijtimoiy kapitalning konstruktiv ta'siri quyidagi uchta asosiy mezon (model) orqali yuzaga keladi: Ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalar (Soft skills) shakli: yosh rahbarlarning tashkilotchilik, nizolarni boshqarish va shaxslararo konstruktiv muloqot maydonini yaratishga qaratilgan boshqaruv madaniyati.

Idoraviy va tarmoqlararo hamkorlik (“ko'prik soluvchi” kapital – Bridging capital) modeli: Davlat va jamoat tashkilotlari bilan faol sherikchilikka asoslangan, boshqaruv apparatida guruhbozlik va mahalliylik va proteksionizm kabi destruktiv xavflarni kamaytiruvchi tizim (respondentlarning 74,9 foizi tomonidan qo'llab-quvvatlangan). Tizimli mentorlik va institutsional ishonch mezoni: Ustoz-shogird an'analari orqali tajriba uzatish, yosh rahbarlar uchun xolis va obyektiv “ijtimoiy lift” (xizmat pillapoyalaridan ko'tarilish) mexanizmini yaratish.

Xulosa qilib aytganda, davlat boshqaruvini takomillashtirishda prognostik (oldindan ko'ra bilish) yondashuvidan foydalanish, tizimdagi muammolarni barvaqt aniqlash va kelgusida boshqaruv risklarining oldini olishda ijtimoiy kapitalning institutsional darajada shakllantirish lozimdir.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasida sotsiologik tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2019-yil 22 fevraldagi PF-5667-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. Бекмуродов М.Б. Бошқарув социологияси. – Тошкент: “Фан”, 2021. – Б. 112-115.
3. Putnam R. D. Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. – New York: Simon & Schuster, 2000. – P. 19-24.
4. Coleman J. S. Foundations of Social Theory. – Cambridge: Harvard University Press, 1990. – P. 300-315.
5. Қўронбоев К. Ёш раҳбар кадрларнинг ташкилотчилик қобилиятларини ривожлантиришнинг ижтимоий-психологик жиҳатлари. Илмий монография. – Тошкент, 2022. – Б. 85.
6. Barrett R. Building a Values-Driven Organization: A Whole System Approach to Cultural Transformation. – Routledge, 2016. – P. 45-52.
7. Штомпка П. Социология доверия / Пер. с англ. Н.В. Морозовой. – М.: Логос, 2012. – С. 67-73.
8. Бурдые П. Формы капитала // Экономическая социология. – 2002. – Т. 3. – №. 5. – С. 60-74.
9. Назаров С.И. Рақамли жамиятда давлат бошқаруви ва кадрлар сиёсати: трансформация жараёнлари // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2023. – № 2. – Б. 45-50.
10. World Bank. World Development Report 2021: Data for Better Lives. – Washington, DC: World Bank, 2021. – P. 120-135.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000